

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**ROZIMOVA QUNDUZ YULDASHEVNA**

**JINOYAT UCHUN JAZO TAYINLASHNING NAZARIY VA AMALIY  
JIHATLARI**

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Kriminologiya. Jinoyat-ijroiya huquqi

**yuridik fanlar doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2024 yil**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)**

**Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Science (DSc)**

**Rozimova Qunduz Yuldashevna**

Jinoyat uchun jazo tayinlashning nazariy va amaliy jihatlari.....3

**Rozimova Kunduz Yuldashevna**

Theoretical and practical aspects of punishments for crime.....29

**Розимова Кундуз Юлдашевна**

Теоретические и практические аспекты наказания за преступление.....54

**E’lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....61

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**ROZIMOVA QUNDUZ YULDASHEVNA**

**JINOYAT UCHUN JAZO TAYINLASHNING NAZARIY VA AMALIY**  
**JIHATLARI**

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Kriminologiya. Jinoyat-ijroiya huquqi

**yuridik fanlar doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2024-yil**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.DSc/Yu207 raqami bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tsul.uz](http://www.tsul.uz)) va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Suyunova Dilbar Joldasbaevna**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Toshpulatov Akrom Ikromovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent

**Najimov Miratdiyev Shamshevdinovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Jamoat xavfsizligi universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03. raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 9-fevral kuni soat 14<sup>00</sup>dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: +99871 233-66-36; faks: +99871 233-37-48, e-mail: [info@tsul.uz](mailto:info@tsul.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1234-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar Amir Temur ko‘chasi 13-uy. Tel.: +99871 233-66-36.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 26-yanvar kuni tarqatildi.

(2024-yil 26-yanvardagi 16-raqamli reestr bayonnomasi).

**A.A.Otajanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, yuridik fanlar doktori, professor

**M.Q.O‘razaliev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
kotibi, yuridik fanlar doktori, professor

**N.S.Salaev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
huzuridagi Ilmiy seminar raisi o‘rinbosari,  
yuridik fanlar doktori, professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasining annotasiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda jinoyatlarning oldini olish, jinoyat sodir etgan shaxslarga jazo tayinlash, mahkumning axloqini tuzatish uning jinoiy faoliyatini davom ettirishga to'sqinlik qilish, jazodan ko'zlangan maqsadlarga erishish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jinoyat uchun jazo tayinlashda "maqsad - vosita – natija" asosiy qoida hisoblanadi. Sud hokimiyatining ustuvor vazifalaridan biri bo'lgan jazo tayinlash, uning samaradorligini chuqur o'rganish zarurati mavjud. Chunki, 2020-yilda dunyo miqyosida har 100 ming kishidan 57 nafariga jinoiy jazo tayinlangan bo'lsa, 2023-yilda ushbu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan 13 foizga oshgan<sup>1</sup>.

Barcha davlatlarda ham jazo tayinlash ko'rsatkichlari yuqoriligicha qolmoqda. 2023-yilda jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jazo tayinlash har 100 ming kishiga nisbatan Venesuelada 82 ta, Janubiy Afrikada – 75 ta, Birlashgan Qirollikda – 81 ta, Birlashgan arab amirligida – 14 ta<sup>2</sup>, Rossiyada – 39 tani tashkil etib, so'nggi uch yilda O'zbekistonda jinoyat sodir etgan shaxslarga jazo tayinlash ko'rsatkichi 31 taga etgan<sup>3</sup>. BMT ma'lumotlariga ko'ra, ilgari jinoyat sodir qilgan shaxslar tomonidan takroran jinoyat sodir etishining asosiy sabablaridan biri jazo tayinlashdagi kamchiliklar bilan bevosita bog'liqdir. Yuqoridagi ma'lumotlar jazo tayinlash masalalarini tadqiq etishning dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

Jahonda jazo tayinlashga oid qonunlarining to'g'ri qo'llanilishiga oid davlat siyosati, jinoyat qonunchiligini takomillashtirish, sodir etilgan jinoyatlar uchun adolatli jazo tayinlash masalalarini tadqiq etishga alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, jazoni individuallashtirish qoidalari, jazolarni qo'shishga doir qonun normalarini takomillashtirish va milliy qonunchilikka xorijiy davlatlarning ijobiy tajribasini, xalqaro standartlarning implementatsiyasini kuchaytirish, qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish choralarning samaradorligini oshirish, qonunni qo'llash amaliyotini yaxshilash yo'nalishlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda ham birinchi instansiyada ko'rilayotgan jinoyat ishlari va jazo tayinlanayotgan shaxslar sonining tahlili ularning yildan-yilga o'sib borayotganligini ko'rsatmoqda. Xususan, 2021-yil birinchi instansiya sudlarida JKning 57–60-moddalari qo'llanilib, 27 880 nafar shaxsga nisbatan 21 295 ta jinoyat ishlari ko'rilgan va jazo tayinlangan bo'lsa, 2022-yilga kelib bu ko'rsatkich sezilarli darajada o'sgan va birinchi instansiya sudlari tomonidan JKning 57–60-moddalari qo'llanilib, 34 497 nafar (2021-yilga nisbatan +6 617 yoki 24 foiz) shaxsga nisbatan 26 730 ta (2021-yilga nisbatan +5 435 yoki 26 foiz) jinoyat ishi ko'rib chiqilgan va jazo tayinlangan. Bundan tashqari, 2021–2022-yillarda apellyatsiya instansiyasida o'zgartirilgan yoki bekor qilingan birinchi instansiya sudlari hukmlarining soni ham yildan yilga oshmoqda. Masalan, 2021-yilda JKning 57–60-moddalari qo'llanilgan 1 153 nafar shaxsga nisbatan 854 ta jinoyat ishi bo'yicha birinchi instansiya sudlarining hukmlari apellyatsiya instansiyasida, 2022-yilga kelib, 1 438 nafar (2021-yilga nisbatan +285 yoki 25 foiz) shaxsga nisbatan 1 078 ta (2021-yilga nisbatan +224 yoki 26 foiz) jinoyat ishi apellyatsiya instansiyasida o'zgartirilgan. E'tiborlisi,

---

<sup>1</sup> [https://www.numbeo.com/crime/region\\_](https://www.numbeo.com/crime/region_)

<sup>2</sup> [https://www.numbeo.com/crime/rankings\\_by\\_country.jsp](https://www.numbeo.com/crime/rankings_by_country.jsp)

<sup>3</sup> [https://www.numbeo.com/crime/country\\_result](https://www.numbeo.com/crime/country_result).

apellyatsiya instansiyasida bekor qilingan jinoyat ishlari sonida ham o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Xususan, 2021-yilda 221 nafar shaxsga nisbatan, 174 ta jinoyat ishi bo'yicha birinchi instansiya sudlarining 57–60-moddalari qo'llanilib, jazo tayinlangan hukmlari apellyatsiya instansiyasida bekor qilingan bo'lsa, 2022-yilga kelib, 296 nafar shaxsga nisbatan 227 ta jinoyat ishi aynan apellyatsiya instansiyasida bekor qilingan. O'z navbatida birinchi instansiya sudlari tomonidan ko'rib, apellyatsiya instansiyasida o'zgartirilgan ishlar soni ham o'sgan. 2021-yilda JKning 57–60-moddalari qo'llanilgan birinchi instansiya sudlarida ko'rib, jazo tayinlangan 21 295 ta jinoyat ishining 854 tasi apellyatsiya instansiyasida o'zgartirilgan bo'lsa, 2022-yilga kelib birinchi instansiya sudida jazo tayinlangan 26 730 ta jinoyat ishidan 1 078 tasi apellyatsiya instansiyasida o'zgartirilgan<sup>4</sup>. Birinchi instansiya sudlarida ko'rib chiqilayotgan jinoyat ishlari va jazo tayinlanayotgan shaxslar sonining o'sishi, apellyatsiya instansiyasida o'zgartirilayotgan yoki bekor qilinayotgan birinchi instansiya sudlarining hukmlari soni ham jinoyat qonunida jazo tayinlash bilan bog'liq qoidalarni qayta ko'rib chiqishni, ularni takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda jinoyat qonunchiligini takomillashtirish va jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan adolatli jazo tayinlash tizimini tubdan isloh qilishga alohida ahamiyat berilib, mazkur sohada muayyan ishlar amalga oshirilmoqda, xususan O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasiga jazo tayinlashga oid qoidalarning kiritilganligi ham muhim ahamiyatga ega. Konstitutsiyaning 26-moddasida hech kim qiynoqqa solinishi, zo'rvonlikka, boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emasligi, 30-moddasida hech kim rasmiy e'lon qilinmagan qonun asosida hukm qilinishi, jazoga tortilishi, mol-mulkidan yoki biron-bir huquqidan mahrum etilishi mumkin emasligi, hech kim ayni bir jinoyat uchun takroran hukm qilinishi mumkin emasligi haqidagi qoidalar mustahkamlandi<sup>5</sup>. Jinoyat kodeksida qo'llaniladigan atama va tushunchalarning mazmuniga aniq ta'rif berish, jinoiy jazolar tizimi va jazo tayinlash mexanizmlarini qaytadan ko'rib chiqish, tamom bo'lmagan jinoyat, jinoyatda ishtirokchilik va bir qancha jinoyat sodir etish institutlariga doir JK normalarini takomillashtirish, ulardagi ziddiyatlarni bartaraf etish, jazoni engillashtirish shartlari belgilangan normalarni kengaytirish, asosiy vazifa etib belgilandi<sup>6</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2017), "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi (2017), "Jinoyat va jinoyat-prosessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori (2018), "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi (2023), "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari va mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarining ijrosini amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

### **Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy**

<sup>4</sup> JK 57-60-moddalari qo'llanilgan ishlar bo'yicha ma'lumot.

<sup>5</sup> Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/6445145>

<sup>6</sup> <https://lex.uz/docs/3735818>

**ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi**<sup>7</sup>. Jazo tayinlashga oid jinoyat qonunchiligini takomillashtirishga oid ilmiy-tadqiqotlar Rossiya davlat adliya universiteti (Rossiya), Case Western Reserve University School of Law (AQSh), M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti (Rossiya), Ural davlat yuridik universiteti (Rossiya), Oksford huquq universiteti (Buyuk Britaniya) kabi xalqaro, ilmiy va ta’lim muassasalarida amalga oshirilmoqda.

Jazo tayinlashning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganishga oid tadqiqotlarda muayyan ilmiy natijalarga erishilgan. Jumladan, amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida jazo tayinlash prinsiplari (Qozon davlat universiteti)<sup>8</sup>, jarima jazosini tayinlash qoidalari (Dostoevskiy nomidagi Omsk davlat universiteti)<sup>9</sup>, jazo tayinlash: engillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlar (O.E. Kutafin nomidagi Moskva davlat yuridik universiteti)<sup>10</sup>, jazo tayinlashda individuallashtirish qoidalari (Qozon davlat universiteti)<sup>11</sup>, jazo tayinlash (University of Pennsylvania)<sup>12</sup>, jinoiy odil sudlov: jazo tayinlash siyosati va muammolari (Oksford huquq universiteti)<sup>13</sup> mavzulari bo‘yicha xulosalar shakllantirilgan va asoslantirilgan.

Jahonda jazo tayinlash bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyat uchun jazo tayinlash; residiv jinoyat instituti; jazo tayinlashda engillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlarni hisobga olish; jinoyatni sodir etganlik uchun qonunda nazarda tutilganidan ham engilroq jazo tayinlash; jinoiy jazo tayinlashning umumiy nazariy tamoyillari va amaliy muammolari, bir necha jinoyat va bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlash va boshqalar.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Mamlakatimizda jinoyat uchun jazo tayinlashning nazariy va amaliy jihatlarini kam o‘rganilgan. Uning ayrim jihatlariga Q.R. Abdurasulova, B.D. Axrorov, B.A. Axmedov, Sh.Yo. Abduqodirov, P. Bakunov, R.A. Zufarov, R. Kabulov, M.X. Rustamboev, F. Toxirov, M. Usmonaliev, M.X. Jiyanov, M.A. Nazarov, M. Qodirov, M.Z. Muqumova, U.Sh. Xoliqulov, Sh.U. Umidullaev, X. Karimov, D. Kamalova va boshqalarning ilmiy ishlarida e’tibor berilgan.

Jinoyat uchun jazo tayinlashning nazariy va amaliy jihatlarini xorijiy olimlar: Z.Z. Nurulloeva, G.Z. Anashkin, M.I. Bajanov, E. Borisov, Ye. Blagov, D. Dyadkin, V.K. Duyunov, V.D. Solovev, O.A. Sadovnikova, S.G. Spivak, N.N. Krupskaya, F.A. Ruchkin, K.N. Mixaylov, T.V. Gubaev, N. V.Kuznesov, V.P. Malkov, M.N.

<sup>7</sup> <https://www.unodc.org/>; <https://www.dissercat.com/>; <https://thedaily.case.edu/>; <https://zakon.ru/blog/>; <https://xn--c1azic8c.xn--p1ai/>

<sup>8</sup> <https://cyberleninka.ru/article>

<sup>9</sup> <https://omamvd.ru/diss/>

<sup>10</sup> <https://www.dissercat.com/content/naznachenie-nakazaniya-obyazatelnye-smagchenie-i-usilenie/read>

<sup>11</sup> <https://lawtheses.com/individualizatsiya-nakazaniya-pri-ego-naznachenii-sudom-po-rossiyskomu-ugolovnomu-pravu>

<sup>12</sup> Criminal Attempts at Common Law. Edwin R. Keedy Professor of Law Emeritus, University of Pennsylvania // University of Pennsylvania Law Review. Vol.102.

<sup>13</sup> <https://www.aic.gov.au>

Stanovskiy, I.S. Tishkevich, Yu.N. Yushkov, Yu.S. Letnikov, J. Robert, A.Ashort, A.S. Bugrinenko, I.N. Samlina, S.G. Arapidi, A.I. Kochkarev, M.Monaxova, L.J. Xarris, K.Binding, A.Hoche, B.Gert, M.P. Mostert, J.Pradel, J.Rachels<sup>14</sup> va boshqalarning tadqiqotlarida o‘rganilgan. Ushbu ilmiy ishlarda jinoyat uchun jazo tayinlashning ayrim jihatlarini o‘rganilgan bo‘lib, jinoyat uchun jazo tayinlashning nazariy va amaliy masalalari kompleks tarzda dissertatsiya darajasida tadqiq etilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Tadqiqot ishi Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilishning innovasion usul va vositalari” mavzusidagi fundamental loyihasi (2020–2022 y.y.) doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** jinoyat uchun jazo tayinlashning nazariy va amaliy masalalarini kompleks o‘rganish asosida aniqlangan muammolarning echimini berish, JK tegishli normalarini takomillashtirishga, jazo tayinlash amaliyotini yaxshilashga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

**Tadqiqotning vazifalari:**

jazo tayinlash umumiy asoslarini nazariy va amaliy tahlil qilish;

jinoyat qonunchiligidagi jazo tayinlash asoslariga oid normalari rivojlanishi tarixining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish;

yengilroq jazo tayinlashning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etish;

aybdor o‘z qilmishiga amalda pushaymon bo‘lganida va aybiga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzilgan jinoyatlar bo‘yicha jazo tayinlashning nazariy va amaliy masalalarini tahlil etish;

tamom bo‘lmagan va ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo tayinlashning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etish;

bir necha jinoyat sodir etganlik uchun jazo tayinlashga oid jinoyat qonuni normalari va ularni qo‘llashning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganish;

takroran jinoyat uchun jazo tayinlash masalalarini o‘rganish;

jinoyatlar majmui uchun jazo tayinlash masalalarini tahlil etish;

residiv jinoyat uchun jazo tayinlashga oid masalalarni tadqiq etish;

bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlashga oid jinoyat qonuni normalari va ularni qo‘llashning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganish;

jazo tayinlashga oid ayrim xorijiy davlatlar qonunchiligining o‘ziga xos hususiyatlarini tahlil etish;

jazo tayinlashga oid milliy jinoyat qonunchiligi normalarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

**Tadqiqotning obyektini** jinoyat uchun jazo tayinlash bilan bog‘liq jinoyat-huquqiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** jinoyat uchun jazo tayinlash bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, qonunni qo‘llash amaliyoti, ayrim xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunchiligi va amaliyoti, jinoyat huquqi fanida mavjud bo‘lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlardan iboratdir.

---

<sup>14</sup> Ushbu olimlar asarlari foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot olib borishda tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, aniq sotsiologik, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullar qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzilgan jinoyatlar bo'yicha jazo tayinlanganda jazoning muddati yoki miqdori Jinoyat kodeksi Maxsus qismi tegishli moddasi (qismi) da nazarda tutilgan eng ko'p jazoning yarmidan oshmasligi kerakligi asoslangan;

JK 50-moddasining oltinchi qismiga muvofiq ayollarga, shuningdek 60 yoshdan oshgan erkaklarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo muddati, shu jumladan, jinoyatlar majmui va bir necha hukm yuzasidan tayinlangan jazo Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasi (moddasi qismi) sanksiyasida nazarda tutilgan ozodlikdan mahrum qilish jazosi eng ko'p muddatining uchdan ikki qismidan ortiq bo'lishi mumkin emasligi, ayollarga, shuningdek 60 yoshdan oshgan erkaklarga nisbatan Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasi (moddasi qismi) nazarda tutilgan ozodlikdan mahrum qilish jazosi muddatidan ham kamroq yoki engilroq jazo JK 57-moddasi qo'llanilgan holda tayinlanishi kerakligi asoslangan;

har xil turdagi asosiy jazolarni qo'shganda ozodlikni cheklashning bir kuni axloq tuzatish ishlarining yoki xizmat bo'yicha cheklashning uch kuniga to'g'ri kelishi asoslangan;

jarima tariqasidagi jazoni almashtirish tartibida (JK 44-moddasi uchinchi qismi) – hukm chiqarish paytida amalda bo'lgan bazaviy hisoblash miqdoridan kelib chiqqan holda, uch yildan ko'p bo'lmagan muddatga tayinlanishi asoslangan;

voyaga etmaganlarga nisbatan jazo tayinlanayotganda JK 82–86-moddalari talablariga rioya qilinadi, bunda JK 57-moddasini qo'llash talab etilmaydi. Sudlanuvchiga u aybdor deb topilgan JK Maxsus qismining moddasida nazarda tutilmagan boshqa engilroq turdagi jazolarning tayinlanish hollari bundan mustasno ekanligi asoslangan;

jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik hamda jinoyat sodir etishga suiqasd qilganlik uchun jazoning muddati yoki miqdori Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan eng ko'p jazoning to'rt dan uch qismidan oshmasligi kerakligi to'g'risidagi qoida: tinchlik va xavfsizlikka qarshi tamom bo'lmagan jinoyatlar uchun, shuningdek: o'n sakkiz yoshga to'lmagan jabrlanuvchining nomusiga tegish yoki unga nisbatan zo'rlik ishlatib, jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish; o'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish yoki jinsiy ehtiyojini g'ayritabiiy usulda qondirish; voyaga etmagan shaxs tavsiflangan yoki tasvirlangan pornografik mahsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, shuningdek, uni tayyorlash, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish yoxud voyaga etmagan shaxsni pornografik xususiyatga ega harakatlarning ijrochisi sifatida jalb etish bilan; voyaga etmagan shaxsni jalb etgan holda qo'shmachilik qilish, fohishaxonalarni tashkil etish yoki saqlash bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlar uchun qo'llanilmasligi kerakligi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

– “jazo tayinlash”, “tamom bo'lmagan jinoyat uchun jazo tayinlash”, “bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlash”, “jazo tayinlashning ob'ekti”, “jazo tayinlash algoritmi” tushunchalariga mualliflik ta'rifi berilgan;

– jazo tayinlashning umumiy asoslariga oid amaldagi jinoyat qonunchiligi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorlari tahlil qilinib, qonun

normalari turlicha talqin qilinishining oldini olish maqsadida JK 56-moddasi va JK Maxsus qismining tegishli moddalaridan og'irlashtiruvchi holat sifatida ko'rsatilgan takroran, xavfli residivist va o'ta xavfli residivist degan bandlarni chiqarish hamda JK 34-moddasida o'ta xavfli residivist tomonidan JK Maxsus qismi moddasida nazarda tutilgan jinoyat sodir etilsa, unga nisbatan ushbu moddaning eng og'ir qismida ko'rsatilgan jazoni belgilash taklifi ilgari surilgan va asoslantirilgan;

– qonunni qo'llash amaliyoti, sudyalarda o'rtasida o'tkazilgan ijtimoiy so'rov natijalari, ayrim xorijiy davlatlar jinoyat qonuni normalarining tahlili asosida aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganida jazo tayinlashni nazarda tutuvchi amaldagi JK 57<sup>1</sup>-moddasini kodeksdan chiqarish taklifi ilgari surilgan;

– aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuvni tuzishda qonunni qo'llash amaliyotini, jazo tayinlashga oid jinoyat qonunini normalarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

– qonunni qo'llash amaliyoti, ayrim xorijiy davlatlar jinoyat qonuni normalarining tahlili asosida odillik va javobgarlikning muqarrarligi prinsiplariga muvofiq amaldagi JKdan takroran jinoyat sodir etish institutini chiqarish, bunday toifadagi jinoyatlarga jinoyatlar majmui sifatida jazo tayinlash taklifi asoslab berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot davomida olingan nazariy-ilmiy xulosalar xalqaro ilmiy bazalar (<https://www.scholar.google.com>, <https://www.sciencedirect.com>, <https://elibrary.ru>) hamda boshqa rasmiy manbalardagi ishonchli ma'lumotlar asosida shakllantirilgan. Toshkent davlat yuridik universiteti tomonidan 2023-yil 10-aprelda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga yuborilgan 7/1380-19-01-son xatga asosan 100 dan ortiq huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari o'rtasida o'tkazilgan anketa so'rovi natijalari va 1 000 dan ortiq sud hukmlari tahlil qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, amaliy taklif va tavsiyalardan kelgusida ilmiy faoliyatda, amaldagi jinoyat qonunchiligini takomillashtirishda, tegishli normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlashda, sud-tergov organlari faoliyatida, shuningdek jinoyat huquqi, jinoyatlar uchun jazo tayinlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi kabi fanlarni ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalaridan kelgusida tadqiqotlar olib borishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qonun ijodkorligi faoliyatida, xususan, normativ-huquqiy hujjatlar tayyorlash hamda ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish jarayonida, jinoyat qonunchiligi normalarini qo'llash amaliyotini takomillashtirishda hamda oliy yuridik ta'lim muassasalarida jinoyat huquqi fanini o'qitishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Jinoyat uchun jazo tayinlashning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etish natijalari asosida:

aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzilgan jinoyatlar bo'yicha jazo tayinlash, ya'ni aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzilgan jinoyatlar bo'yicha tayinlanadigan jazoning muddati yoki miqdori Jinoyat Kodeks Maxsus qismining tegishli moddasi (qismi) da nazarda tutilgan eng ko'p jazoning yarmidan oshmasligi kerakligi to'g'risidagi taklif O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 18-fevraldagi O'RQ-675-sonli "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va Jinoyat protsessual kodekslariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonunining 1-moddasida, Jinoyat kodeksining 57<sup>2</sup>-moddasida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2022-yil 8-apreldagi 04/2-10-3735-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklif ishni sudga qadar

yuritishning soddalashtirilgan shakli bo'lib, fuqarolarning ortiqcha ovoragarchiliklariga chek qo'yish, ish samaradorligini oshirish, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoyasining yaxshilanishiga xizmat qilgan;

JK 50-moddasining oltinchi qismiga muvofiq ayollarga, shuningdek 60 yoshdan oshgan erkaklarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo muddati, shu jumladan, jinoyatlar majmui va bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlanayotgan hollarda ham, Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasi (moddasi qismi) sanksiyasida nazarda tutilgan ozodlikdan mahrum qilish jazosi eng ko'p muddatining uchdan ikki qismidan ortiq bo'lishi mumkin emas. Ayollarga, shuningdek 60 yoshdan oshgan erkaklarga nisbatan Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasi (moddasi qismi) nazarda tutilgan ozodlikdan mahrum qilish jazosi muddatidan ham kamroq yoki boshqa engilroq jazo JK 57-moddasi qo'llanilgan holda tayinlanadi, degan taklif O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi 1-sonli qarorining 28-bandida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2023-yil 07-noyabrdagi 08/877-23-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklif inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoyasining yaxshilanishiga xizmat qilgan;

har xil turdagi asosiy jazolarni qo'shganda ozodlikni cheklashning bir kuni axloq tuzatish ishlarining yoki xizmat bo'yicha cheklashning uch kuniga to'g'ri keladi, degan taklif O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2022-yil 14-maydagi 9-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi 1-sonli Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risidagi qarorining 51-bandida o'z aksini topgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2023-yil 07-noyabrdagi 08/877-23-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklif inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoyasining yaxshilanishiga xizmat qilgan;

jarima tariqasidagi jazoni almashtirish (JK 44-moddasi uchinchi qismi) – hukm chiqarish paytida amalda bo'lgan bazaviy hisoblash miqdoridan kelib chiqqan holda, uch yildan ko'p bo'lmagan muddatga tayinlanadi, degan taklif O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2022-yil 14-maydagi 9-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi 1-sonli Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risidagi qarorining 27-bandi birinchi xatboshisining uchinchi kichik xatboshisida o'z aksini topgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2023-yil 07-noyabrdagi 08/877-23-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklif inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini muhofazasi kuchaytirilishiga xizmat qilgan;

voyaga etmaganlarga nisbatan jazo tayinlayotganda JK 82 – 86-moddalari talablariga rioya qilinadi, bunda JK 57-moddasini qo'llash talab etilmaydi. Sudlanuvchiga u aybdor deb topilgan JK Maxsus qismi tegishli moddasida nazarda tutilmagan boshqa engilroq turdagi jazolarning tayinlanish hollari bundan mustasnodir, degan taklif O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2022-yil 14-maydagi 9-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentyabrdagi 21-sonli "Voyaga etmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 10-bandi uchinchi xatboshisida o'z aksini topgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2023-yil 07-noyabrdagi 08/877-23-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklif inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoyasining kuchaytirilishiga xizmat qilgan;

jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik hamda jinoyat sodir etishga suiqasd qilganlik uchun jazoning muddati yoki miqdori Jinoyat Kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan eng ko'p jazoning to'rt dan uch qismidan oshmasligi kerakligi to'g'risidagi qoida: tinchlik va xavfsizlikka qarshi tamom bo'lmagan

jinoyatlar uchun, shuningdek quyidagilar bilan: o'n sakkiz yoshga to'lmagan jabrlanuvchining nomusiga tegish yoki unga nisbatan zo'rlik ishlatib, jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish; o'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish yoki jinsiy ehtiyojini g'ayritabiiy usulda qondirish; voyaga etmagan shaxs tavsiflangan yoki tasvirlangan pornografik mahsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, xuddi shuningdek uni tayyorlash, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish yoxud voyaga etmagan shaxsni pornografik xususiyatga ega harakatlarning ijrochisi sifatida jalb etish bilan; voyaga etmagan shaxsni jalb etgan holda qo'shmachilik qilish, fohishaxonalarni tashkil etish yoki saqlash bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlar uchun qo'llanilmasligi to'g'risidagi taklif O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-apreldagi O'RQ-829-sonli Qonunida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2023-yil 25-aprel 27/2-120-23-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklif voyaga etmaganlar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishida ko'proq insonparvarlik prinsipini amalda namoyon bo'lishiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprotasiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta ilmiy anjuman, jumladan, 2 ta xalqaro, 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 26 ta ilmiy ish, jumladan, 2 ta monografiya, 24 ta ilmiy maqola (6 tasi xorijiy nashrlarda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 256 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish qismida** tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, uning maqsad va vazifalari, ob'ekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprotasiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Jazo tayinlashning umumiy asoslari**" deb nomlanib, jazo tayinlash umumiy asoslarining nazariy va amaliy tahlili, jinoyat qonunchiligidagi jazo tayinlash asoslariga oid normalari rivojlanishi tarixining o'ziga xos xususiyatlarining tahliliga bag'ishlangan.

Jinoyat qonunchiligida, jazo tayinlash umumiy asoslari nazariy va amaliy tahlili qilingan, jazo tayinlash asoslariga oid normalarining rivojlanishi tarixi o'rganilib, jazo tayinlash asoslariga oid normalarning rivojlanishiga oid manbalar davrlarga ajratilgan holda tahlil qilindi va har bir davrning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Ishda amaldagi jinoyat qonunchiligida jazo tayinlashning o'ziga xos belgilarini ikkita guruhga: jazo tayinlashning umumiy va maxsus asoslariga ajratib,

tahlil qilish lozim degan fikr ilgari surilgan.

Muallif tomonidan jazo tayinlash, tamom bo‘lmagan jinoyat uchun jazo tayinlash institutlarining ta’rifi ishlab chiqilgan.

jazo tayinlash – sud tomonidan aybdor deb topilgan shaxsga nisbatan qo‘llaniladigan muayyan jazoni mutanosiblik prinsipiga asoslangan holda, jinoyat qonunida nazarda tutilgan jazoning maqsadiga erishish uchun etarli holda tanlashni, jazoning miqdori va muddatlari bo‘yicha ko‘rsatma berish bilan bog‘liq masalalarni tartibga soluvchi jinoyat huquqi instituti.

“tamom bo‘lmagan jinoyat uchun jazo tayinlash” jinoyat tarkibi belgilari mavjud bo‘lgan, ijtimoiy xavfli xatti-harakatlarni to‘liq bajarmaganlik yoki jinoiy oqibatlarni keltirib chiqarmaganlik (tayyorgarlik ko‘rish yoki jinoyatga suiqasd qilish bosqichlarida) uchun sud tomonidan jazo chorasini qo‘llanilishidir.

Jinoyat qonunchiligining jazo tayinlash asoslariga oid normalarini tarixiy-qiyosiy tahlil qilish asosida ular quyidagi bosqichlarga ajratilgan:

1. Qadimgi davr (Avesto, Xammurapi, Yaso qonunlari).
2. Shariat normalari amal qilgan davr. VIII-XIX asrning 50-yillari (Qur’oni karim, Xidoya, Temur tuzuklari).
3. Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davri (XIX asrning 50-yillari va XX asrning 20-yillari).
4. Sobiq ittifoq (1922-yildan 1995-yil 1-aprelgacha)davri.
5. Mustaqillik davri (1995-yil 1-apreldan hozirga qadar).

**1.Qadimgi davr** (Avesto, Xammurapi, Yaso qonunlari). Avestoda asosan jinoyat sodir qilgan barcha insonlarga bir xil jazo nazarda tutilgan, ayrim jazolarni muqobil jazo bilan almashtirish mumkinligi belgilangan va insonni ulug‘lash g‘oyasi ustuvor bo‘lgan. Turk hoqonligida jazolar shafqatsiz bo‘lganligi, xususan og‘ir jinoyatlar uchun butun urug‘, uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlari uchun esa, jinoyatchining o‘zi qatl etilganligi, qabila, urug‘ yoki jamoaning javobgarligi mavjud bo‘lganligi, jazo qo‘llashda asosiy e’tibor etkazilgan zararni qoplatishga qaratilganligi bilan ajralib turgan. Mo‘g‘ullar hukmronligi davrida amalda bo‘lgan Yaso qonunlarida jinoyatlar uchun shafqatsiz jazolar tayinlangan. Yaso qonunlarida jazo tayinlash ijtimoiy va milliy tengsizlikka asoslangan. Ya’ni, bir begunoh mo‘g‘ulning o‘limi uchun xun bahosi 40 bolish (tanga) kumush miqdorni tashkil etsa, bu miqdor xitoylik o‘limi uchun bir eshakning bahosiga teng bo‘lgan. Yaso qonunlari bo‘yicha jazo tayinlashdagi yana bir o‘ziga xos jihat qayta sodir etilgan jinoyat uchun shaxsga og‘irroq jazo qo‘llanilgan.

**2. Shariat normalari amal qilgan davr.** VIII-XX asrning 20-yillari (Qur’oni karim, Xidoya, Temur tuzuklari). Islom huquqining asosiy manbasi Qur’oni karimda ayb shaklidan kelib chiqib, xun to‘lash, ta’zir jazosi, ikki oy muntazam ro‘za tutish yoki 60 kishini to‘yg‘azish jazolari nazarda tutilgan. Jazo tayinlashning umumiy asoslari sifatida alohida muayyan holatlar ko‘rsatib o‘tilmasada, jinoyatlarni tasniflash orqali tayinlanadigan jazolarga aniqlik kiritilgan. Shariat normalari zamonaviy jinoyat huquqiga o‘xshash jinoyat tarkibidan tashkil topgan va adolatli jazo tayinlashda jinoyat predmeti ham alohida ahamiyat kasb etgan. Jazo tayinlashda qilmishning og‘irligi va aybdorning shaxsiga qarab, ta’zir chorasi sifatida jamoatchilik izzasi, qozi yoki hukmdorning ogohlantirishi, tartibga chaqiruvchi suhbat va boshqa ta’sir choralari qo‘llanilishi mumkinligi ko‘rsatilgan. Islom

huquqida shaxsning huquqlariga tajovuz qiluvchi g'ayriqonuniy harakatlarni sodir qilganlik uchun jazo tayinlashda engillashtiruvchi holat qo'llanilmagan. Ta'qiqlangan, lekin jazolashga loyiq emas, deb topilgan harakatlar uchun tayinlanadigan jazolar doirasi keng, turli xil va egiluvchan ekanligi bilan ajralib turgan. Shariatda qotil jabrlanuvchi yoki uning qarindoshlaridan, agar ular o'zlarining qonli qasos olish huquqlaridan voz kechsalar, kompensasiya tariqasida ashyo yoki pul berib o'z jonini sotib olishi mumkin bo'lgan. Islom huquqida bevosita jazo tayinlashning umumiy asoslari keltirib o'tilmagan bo'lsada, shariatga muvofiq sodir etilgan jinoyatning holatidan kelib chiqib, jazo chorasini engillashtirish yoki og'irlashtirish amaliyoti mavjud bo'lgan va uni qo'llash bevosita qonuni qo'llovchining ixtiyoriga havola etilgan. «Temur tuzuklari»da mamlakatda jinoyat sodir qilganlarga nisbatan qo'llaniladigan jazo har tomonlama puxta ishlab chiqilganligi, xususan, jazo tayinlashda shoshma-shosharlikka yo'l qo'yilmasligi, dastlab jazo tayinlash bilan bog'liq masalalarda sodir etilgan jinoyat uchun faqat bitta jazo tayinlanishiga alohida urg'u berilgan. Ushbu davrda faqat islom huquqiga muvofiq, qattiqqo'llik bilan, ammo adolatga tayanib jazo tayinlangan. Ehtiyotsizlik orqasida sodir qilingan jinoyatlar uchun birinchi marotaba kechirish, ogohlantirish choralari qo'llanilgan.

**3. Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida** qozilik sudlarining jazo tayinlashdagi imkoniyatlari cheklanishi ayrim shariat nizomlarining qayta ko'rib chiqilishiga sabab bo'lgan. Masalan, tiriklayin erga ko'mish, toshbo'ron qilish, qo'l yoki oyoqlarni chopib tashlash, minoradan uloqtirish, quloq va burunni kesish, ko'zlarni o'yish kabi o'ta shafqatsiz jazolar bekor qilingan.

**4. Sobiq ittifoq davri.** O'zbekiston SSRning 1926-yilgi JKda jazo tayinlashning umumiy asoslari bo'yicha alohida modda nazarda tutilmagan, lekin ilk bor jazoni og'irlashtiruvchi va engillashtiruvchi holatlar berilgan. Mazkur kodeksdan farqli ravishda 1959-yilgi O'zbekiston SSR JKda ilk marotaba jazo tayinlashning umumiy asoslari nazarda tutilgan va davlatga qarshi jinoyatlarning shaxsga qarshi jinoyatlarga nisbatan ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori hisoblanib, davlatga qarshi jinoyatlar uchun og'irroq jazo belgilangan.

**5. Mustaqillik davri.** 1994-yilgi O'zbekiston Respublikasi JKda jazo tayinlashning umumiy asoslari aniq belgilanib, ilk marotaba jazoni engillashtiruvchi holatlarga ustuvor ravishda e'tibor qaratilib, og'irlashtiruvchi holatlardan oldin bayon etilib, inson mafaati davlat mafaatidan ustun qo'yilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Ayrim holatlarda jazo tayinlashga oid jinoyat qonuni normalarining nazariy va amaliy masalalari**" deb nomlanib, unda engilroq jazo tayinlashning nazariy va amaliy jihatlari, aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganida va aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzilganda jazo tayinlash, tamom bo'lmagan va ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo tayinlashning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan.

Dissertant tomonidan jazo tayinlash obyekti, jazo tayinlash algoritmi tushunchalarining ta'rifi ishlab chiqilgan.

Jazo tayinlash algoritmiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Jazo tayinlash algoritmi – sudlar tomonidan jinoyat sodir qilgan shaxsga nisbatan uzil-kesil jazo tayinlash maqsadida jinoyat qonuniga muvofiq amalga oshirilishi lozim bo'lgan

harakatlarning qat'iy ketma-ketligi”.

Ishda engilroq jazo tayinlash masalalarini tadqiq qilgan olimlarning asarlarini o'rganish natijasida JK 57-moddasida engilroq jazo faqat ikkita huquqiy asos, ya'ni sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi holatlar mavjud bo'lganida va alohida hollarda qo'llanilishi mumkin, degan xulosaga kelingan.

JK 57<sup>1</sup>-moddasi, aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganida jazo tayinlash va JK 57-moddasi engilroq jazo tayinlash mantiqan bir-birini takrorlayotganligi, aksariyat xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligida aynan aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganda jazo tayinlashga oid alohida norma yo'qligi, ushbu norma sud tomonidan JK 57-moddasi qo'llanishini cheklab qo'yayotganligi sababli ushbu normani JKdan chiqarish lozimligi asoslantirilgan.

Aybgga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzilgan jinoyatlar bo'yicha jazo tayinlashda jazolarni qo'shish qoidalari o'rganildi va bunday holatda JK 57-moddasini qo'llash masalasi ham muhokama etilishi lozimligi asoslantirildi.

Ishda tamom bo'lmagan jinoyat uchun jazo tayinlash tushunchasiga mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi, ya'ni, tamom bo'lmagan jinoyat uchun jazo tayinlash jinoyat tarkibi belgilari mavjud bo'lgan, ijtimoiy xavfli harakatlarni to'liq bajarmaganlik yoki jinoiy oqibatlar ro'y bermagan (tayyorgarlik ko'rish yoki jinoyatga suiqasd qilish bosqichlarida) qilmish uchun sud tomonidan jazo chorasini qo'llanilishidir.

Dissertant mazkur bobda jazoni engillashtiruvchi holatlar ro'yxatini kengaytirib berilishini taklif qilgan, jumladan:

jabrlanuvchi (fuqaroviy da'vogar) ning da'vosi yo'qligi;

jinoyat sodir etilganidan so'ng jabrlanuvchiga tibbiy yoki boshqa tarzda yordam ko'rsatish;

aybdorning qaramog'ida voyaga etmagan farzandi mavjudligini ham jazoni engillashtiruvchi holatlar.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Bir necha jinoyat va bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlashning nazariy va amaliy hususiyatlari”** deb nomlanib, u bir necha jinoyat sodir etganlik uchun jazo tayinlashga oid, takroran, jinoyatlar majmui, residiv jinoyat uchun, bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlashga oid jinoyat qonuni normalari va ularni qo'llashning nazariy va amaliy jihatlariga bag'ishlangan.

Muallif mazkur bobda bir necha jinoyat va bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlashdagi vaqt chegarasini aniqlab, hukm chiqarilguncha va hukm chiqarilgandan keyin sodir etilgan jinoyatlar uchun JKning qaysi moddasi bilan jazo tayinlash kerakligi masalasi bo'yicha JK 59-moddasi birinchi qismida shaxs ikki yoki undan ortiq jinoyatni sodir etgan bo'lib, ulardan birortasi uchun ham hukm qonuniy kuchga kirib, sudlangan bo'lmasa, sud ushbu Kodeksning 54-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq har qaysi qilmish uchun jazo tayinlab, so'ngra to'la yoki qisman qo'shish yo'li bilan uzil-kesil jazo tayinlaydi, degan xulosaga kelgan. Shu bilan birga amaldagi JKda bir necha jinoyat va bir necha hukm yuzasidan faqat ozodlikdan mahrum qilish jazosini boshqa jazolar bilan qo'shib hisoblash nazarda tutilgan. Aslida ushbu holatda barcha asosiy jazolarni qo'shish qoidasi nazarda tutilishi lozimligini asoslantirib, JK 61-moddasiga bir necha jinoyat va bir necha hukm yuzasidan jazolar qo'shilganda: a) ozodlikdan mahrum qilishning bir kuni jarimaning ½ qismi(bxm), ozodlikni cheklashning ikki kuniga, intizomiy qismga jo'natishning

bir kuniga, axloq tuzatish ishlarining yoki xizmat bo'yicha cheklashning uch kuniga; majburiy jamoat ishlarining ikki soatiga; b) ozodlikni cheklashning bir kuni jarimaning 1/3 qismi(bxm), axloq tuzatish ishlarining yoki xizmat bo'yicha cheklashning uch kuniga; majburiy jamoat ishlarining ikki soatiga; v) axloq tuzatish ishlarining bir kuni jarimaning 1/4 qismi(bxm), majburiy jamoat ishlarining bir yarim soatiga; g) majburiy jamoat ishlarining ikki soati jarimaning 1/5 qismi (bxm) ga to'g'ri keladi, degan taklifini asoslagan.

Dissertant bir nechta jinoyat uchun jazo tayinlash masalalariga oid olimlarning fikrlarini o'rganish asosida JKdan takroran jinoyat sodir etish institutini chiqarish va echim sifatida jinoyatlar majmui sifatida jazo tayinlash va JKning 59-moddasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflari orqali o'zining qarashini asoslantirgan. Ushbu institutni bekor qilish uchun asos sifatida quyidagilar ko'rsatilgan: 1) JK Maxsus qismining 77 ta moddasida takroranlik belgisi; shulardan, 12 ta moddada faqat takroranlik, 57 ta moddaning bitta qismida takroran va xavfli residiv jinoyatni og'irlashtiruvchi belgi, 4 ta moddada takroran, xavfli residiv va o'ta xavfli residivist kvalifikatsiyaviy belgi sifatida bitta qismda keltirilganligi jinoyat qonunchiligida ushbu institut uchun yagona qoidaning mavjud emasligini ko'rsatadi; 2) tamom bo'lgan va tamom bo'lmagan jinoyatlarda jazo tayinlash masalasida O'zbekiston Respublikasi JK va Oliy Sudi Plenumi qarorlarida yondashuvning bir xil emasligi; 3) shaxsning ikkinchi marotaba ijtimoiy xavfli jinoyat sodir etganligi uchun o'z-o'zidan og'ir jazo tayinlanayotganligi, ya'ni jazoning ayb va shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasiga (odillik prinsipiga) mos emasligi; 4) o'rganilgan 1000 dan ortiq sud hukmlarining uchdan bir qismida javobgarlikning muqarrarligi prinsipiga rioya qilinmaganligi; 5) sudyalar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari o'rtasida o'tkazilgan ijtimoiy so'rov natijalariga ko'ra, 82 foiz ishtirokchi mazkur institutdan voz kechish lozimligini qo'llab quvvatlagan.

Tadqiqotchi tomonidan takroran jinoyat sodir etgan shaxsga adolatli, mutanosib jazo tayinlash uchun umumiy qoida sifatida jinoyatlar majmui bo'yicha jazo tayinlash lozimligi asoslantirilgan.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2014-yilda 12345 nafar, 2021-yilda 14 056, 2022-yilda 13096 ta ish bo'yicha 16959 nafar shaxsga nisbatan JK 57-moddasi qo'llanilgan. 2021-yilda JKning 57<sup>2</sup>-moddasi bo'yicha 110 ta shaxsga jazo tayinlangan bo'lsa, 2022-yilda 123 ta ish bo'yicha 150 ta shaxsga tegishli modda bo'yicha jazo tayinlangan. 2018-yilda JKning 60-moddasi tartibida jazo tayinlangan shaxslar soni 3 350 tani tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilga kelib 4275 ta shaxsga ushbu modda qo'llanilib, jazo tayinlangan. 2022-yilda esa JKning 60-moddasi tartibida 4974 ta ish bo'yicha 5298 shaxsga nisbatan jazo tayinlanganligi<sup>15</sup> ham shaxs tomonidan qayta jinoyat sodir etish holatlari kamaymayotganligini ko'rsatadi.

Muallif olimlarning residiv jinoyat uchun jazo tayinlash masalasiga oid fikrlarini ikkita guruhga: 1) faqat qasddan sodir etiladigan jinoyatlar uchun jazo tayinlash; 2) residiv jinoyat tarkibiga ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan jinoyat ham kirishini asoslagan olimlarning fikrlariga ajratgan. Shuningdek, JK 56-moddasi va JK Maxsus qismi moddalari bandlaridan xavfli residiv va o'ta xavfli residivist tomonidan degan jumlalar chiqarilib, barcha jinoyatlar uchun umumiy qoida sifatida

---

<sup>15</sup> Oliy sudning 2022-yil 10-oktyabrdagi 07/14-12515-325 sonli javob xati

JK 34-moddasiga o'ta xavfli residivist tomonidan JK Maxsus qismi moddasida nazarda tutilgan jinoyat sodir etilsa, unga nisbatan ushbu moddaning eng og'ir qismida ko'rsatilgan jazo belgilanishiga oid qoida kiritilishi lozimligi asoslangan.

Mazkur bobda ikki yoki undan ortiq shaxsning oldindan til biriktirib, jinoyat sodir etilishida ishtirok qilishi murakkab ishtirokchilik, deb topilishi va JK Maxsus qismi tegishli moddasi "bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirgan holda" degan bandi bilan jazo tayinlanishi lozimligi isbotlangan. Shuningdek, ikki yoki undan ortiq shaxsning birgalikda jinoiy faoliyat olib borish uchun bir necha marotaba jinoyat sodir etganligi uyushgan guruh deb topilib, JK Maxsus qismining og'irlashtiruvchi "uyushgan guruh a'zosi tomonidan" bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozimligi isbotlangan.

Ushbu bobda residiv jinoyat va uning uchun jazo tayinlash bo'yicha qator davlatlar (Rossiya, Qozog'iston, Ukraina, Belarus Respublikasi, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Koreya, Ispaniya, Norvegiya, Fransiya, Shvesiya MDHga a'zo va hk)ning jinoyat qonunchiligi tahlil qilingan va quyidagilar aniqlangan.

Ushbu guruhga mansub davlatlar jinoyat qonunda bevosita residiv jinoyat tushunchasi yoritib berilmagan, jumladan, Shvesiya jinoyat qonunida residiv jinoyat tushunchasi nazarda tutilmagan. Bunda residiv jinoyatlar bilan bog'liq masalalar qasd turidan qat'iy nazar sudlangan shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyat sifatida belgilangan<sup>16</sup>.

Yuqorida nomi keltirilgan davlatlar jinoyat qonunida residiv jinoyatga ta'sir ko'rsatuvchi sudlanganlik holatining qancha muddat saqlanishi borasida turlicha yondashuvlar mavjud, Finlyandiya, Norvegiya, Shvesiya JKda sudlanganlikning muddati maksimal darajada qisqartirilgan bo'lib, hatto uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar uchun ham sudlanganlik muddati amal qilmaydi va ushbu toifadagi jinoyatlarning takroran sodir qilinishi jinoyatlar residivi hisoblanmaydi<sup>17</sup>. Fransiya, Germaniya va Italiyada sudlanganlik muddati uzoqroq davrni tashkil etib, nisbatan og'ir bo'lgan jinoyatlar uchun ushbu muddat bir necha yillarni tashkil etadi<sup>18</sup>.

Fransiya, Yaponiya va Koreya JKda jinoyatlarning og'irligi darajasiga ko'ra residiv jinoyat turlarga bo'linmaydi, faqat hukm chiqarishda hisobga olinadi.

Ishda bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlashning quyidagicha ta'rifi ishlab chiqilgan:

*bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlash* hukm qonuniy kuchga kiringach shaxs sodir qilgan jinoyati uchun tayinlangan jazo muddatini to'liq o'tamasdan turib, shuningdek jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinib, jazoning o'talmagan qismi mobaynida, amnistiya akti yoki afv etish asosida jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish yoxud jazoni engilrog'i bilan almashtirish qo'llanilgan shaxs jazoning o'talmay qolgan qismi mobaynida faqat qasddan yangi jinoyat sodir etsa, shuningdek, shartli jazo tayinlangan shaxs sinov muddati davomida, jazosi engilroq jazo bilan almashtirilgan shaxs jazoning o'talmagan qismi mobaynida ayb shaklidan qat'iy nazar yangi jinoyat sodir qilganligi uchun sud tomonidan jazo chorasining qo'llanilishi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi "**Jazo tayinlashga oid ayrim xorijiy**

---

<sup>16</sup><http://www.sweden>

<sup>17</sup><https://www.wipo.int>

<sup>18</sup>Ushbu olimlar asarlari foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

**davlatlar qonunchiligining tahlili va milliy jinoyat qonuni normalarini takomillashtirish**” deb nomlanib, jazo tayinlashga oid ayrim xorijiy davlatlar qonunchiligining o‘ziga xos jihatlari va jazo tayinlashga oid milliy jinoyat qonunchiligi normalarini takomillashtirishga bag‘ishlangan.

Dissertatsiyada xorijiy davlatlar qonunchiligida jazo tayinlashda hisobga olinadigan holatlarni tushunish doktrinal va amaliy tajribadan kelib chiqishi ko‘rsatilgan. Tadqiqotchining fikricha, jinoyat tarkiblarini ijtimoiy xavflilik darajasiga ko‘ra, shaxsga tayinlanadigan jazoni engillashtiradigan yoki og‘irlashtiradigan holatlarga qarab guruhlarga bo‘lish masalasiga xalqaro tajribada turli yondashuvlar mavjudligi ko‘rsatilgan.

MDH davlatlari JKda jazoni engillashtiruvchi holatlar doirasi keng, ya’ni jabrlanuvchi bilan yarashish (Ozarbayjon), jinoyat sodir etilganidan so‘ng jabrlanuvchiga tibbiy yoki boshqa tarzda yordam ko‘rsatish, jinoyat natijasida etkazilgan mulkiy va ma’naviy zararni ixtiyoriy qoplash (Armaniston, Belarus Respublikasi, Rossiya, Tojikiston, Ukraina, Turkmaniston), jazoni emas, balki javobgarlikni engillashtiruvchi xolatlarda (Turkmaniston), aybdor qaramog‘ida 14 yoshgacha bo‘lgan bolalarning mavjudligi (Armaniston, Belarus Respublikasi, Ozarbayjon, Rossiya, Tojikiston, Qozog‘iston), oilasining ko‘p bolali ekanligi (Turkmaniston) jazo tayinlashda engillashtiruvchi holat, deb topiladi.

Muallif tomonidan aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv instituti va aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzilgan jinoyatlar bo‘yicha jazo tayinlash (Rossiya, Qirg‘iziston va AQSh) da JK 57-moddasini ham qo‘llash lozimligi, shuningdek ishda tamom bo‘lmagan jinoyatlar uchun uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanmasligi lozimligi haqidagi fikr ilgari surilgan.

Rossiya, Belarus Respublikasi, Qozog‘iston, Moldova, Ozarbayjon, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Tojikiston, Gruziya JK da ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo tayinlash bilan bog‘liq masalalar alohida moddada mavjudligidan kelib chiqib, mazkur qoidani milliy jinoyat qonunchiligimizning 58-moddasida aks ettirish taklif etilgan.

Jinoyatlar majmui bo‘yicha har bir sodir etilgan jinoyat uchun alohida jazo tayinlanishida, jinoyatlar majmui uncha og‘ir bo‘lmagan yoki o‘rtacha og‘ir jinoyatlardan yoki og‘ir yoxud o‘ta og‘ir jinoyat sodir etishga suiqasd qilishdan tashkil topgan bo‘lsa, yakuniy jazo uncha og‘ir bo‘lmagan jazoni og‘irroq jazo bilan qoplash yoxud tayinlangan jazolarni qisman yoki to‘liq qo‘shish orqali (Rossiya, Qozog‘iston, Ozarbayjon, Moldova, Litva) tayinlanishi belgilangan. JKdagi bunday yondashuv qonunni qo‘llash amaliyotida jinoyatlar majmui bo‘yicha jazo tayinlashda yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan sud xatolarining oldini olishga xizmat qiladi. Jinoyatlar majmui bo‘yicha yakuniy jazo engilroq jazoni og‘irroq jazo bilan, har bir jinoyat uchun teng jazolar tayinlanganda esa bitta jazo boshqasi bilan to‘liq qoplash orqali tayinlanadi (Gruziya). Mazkur jinoyatlar majmui uchun jazo tayinlashda faqat to‘la yoki qisman qo‘shish qoidasi (uzoq muddatli va umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi bundan mustasno) amal qilishi lozimligi asoslantirildi.

Jinoyatlar majmui va bir necha hukmlar bo‘yicha jazolarni qisman yoki to‘liq qo‘shganda ozodlikdan mahrum qilishning bir kuni ozodlikni cheklashning ikki kuniga, majburiy jamoat ishlarning sakkiz soatiga (Rossiya, Tojikiston), jinoyatlar

majmui va hukmlar majmui bo'yicha jazolarni qo'shishda ozodlikdan mahrum qilishning bir kuni ozodlikni cheklashning ikki kuniga, jamoat ishlarining yigirma to'rt soatiga (Belarus Respublikasi) to'g'ri kelishi belgilangan.

Yaponiyada residiv jinoyatlar uchun jazo tayinlashga oid normalar bevosita jinoyat qonunida emas, balki jinoyat ijroiya qonunida belgilangan. Ayrim davlatlar JKda residiv jinoyat tushunchasi nazarda tutilmay, residiv jinoyatlar bilan bog'liq masalalar sudlangan shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyat sifatida belgilangan (Shvesiya, Finlyandiya, Norvegiya)<sup>19</sup>.

O'rganilgan aksariyat davlatlar, ya'ni Belarus Respublikasi<sup>20</sup>, Latviya<sup>21</sup>, Litva<sup>22</sup>, Estoniya<sup>23</sup>, Ozarbayjon<sup>24</sup> JKda residiv jinoyatlarga xos bo'lgan asosiy xususiyatlar sifatida: residiv jinoyatlar tushunchasi jinoyat huquqiga mansub institut hisoblanishi, residiv jinoyatlar o'z ichiga jinoyatlarning takrorlanishini, ilgari sodir etilgan jinoyat uchun jinoyat-huquqiy oqibatlar saqlanishi, residiv jinoyat uchun shaxs tomonidan yangi jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida og'irroq jazo tayinlanishida namoyon bo'ladi.

Fransiya<sup>25</sup>, Yaponiya<sup>26</sup> va Koreya<sup>27</sup> JKda jinoyatlarning og'irligi darajasiga ko'ra residiv jinoyat turlarga bo'linmay, faqat jazo tayinlashda hisobga olinadi.

Bir necha hukm bo'yicha yangidan sodir etilgan jinoyat uchun tayinlanayotgan yakuniy jazo miqdori sudning avvalgi hukmida tayinlangan jazoning o'talmagan qismidan ko'p bo'lishi kerakligi qat'iy belgilangan (Rossiya, Ozarbayjon, Armaniston, Belarus Respublikasi, Qozog'iston, Moldova, Turkmaniston).

Moldava<sup>28</sup> JKda jazo tayinlashda jazoni individuallashtirish qoidasi qo'llaniladi, unga ko'ra jinoyat sodir etganlikda aybdor, deb topilgan shaxsga Kodeksning Maxsus qismida nazarda tutilgan chegaralar doirasida va Umumiy qism qoidalariga muvofiq adolatli jazo tayinlanadi. Jinoyat sodir etganlik uchun nazarda tutilgan muqobil jazolardan qattiqroq jazo, agar ko'rsatilganlardan engilroq jazo jazoning maqsadiga erishishni ta'minlamasa, tayinlanishi mumkin. Ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llanilganida uning sababi sud tomonidan asoslanishi kerak.

XXR jinoyat qonunchiligida asosiy jazo sifatida siyosiy huquqlardan mahrum qilish ham nazarda tutilgan, ya'ni aybdor saylash va saylanish huquqlari; jamoat oldida so'zlash, nashr etish, yig'ilishlarda qatnashish, sayohat qilish, huquq erkinligini namoyish etish; davlat organlarida lavozimni egallash; davlat kompaniyalari, korxonalari, tashkilotlari, rahbarlik lavozimlarini egallash huquqlaridan mahrum etiladi. Siyosiy huquqlardan mahrum qilish muddati, 1 yildan 5 yilgacha belgilangan<sup>29</sup>.

Ukraina JKga ko'ra, agar shaxs ozodlikdan mahrum qilish yoki ozodlikni cheklash tarzidagi jazoni namunali xulq-atvori va mehnatga vijdonan munosabatida

---

<sup>19</sup> <http://www.sweden>

<sup>20</sup> <https://pravo.by/document>

<sup>21</sup> <https://www.wipo.int/wipolex/ru>

<sup>22</sup> <https://studylib.ru/doc>

<sup>23</sup> <https://constitutions.ru>

<sup>24</sup> <https://online.zakon.kz>

<sup>25</sup> <https://constitutions.ru>

<sup>26</sup> <https://constitutions>

<sup>27</sup> <https://vseokoree.com>

<sup>28</sup> <https://lege.md/ru>

<sup>29</sup> <http://ru.china-embassy.gov.cn>

bo‘lib o‘tab bo‘lganidan keyin sud ushbu belgilangan muddatlar tugaguniga qadar sudlanganlikni bekor qilishi mumkinligi nazarda tutilgan, lekin Moldova, Belorusiya JKga ko‘ra, tayinlangan jazoni o‘talganidan keyin sud ushbu belgilangan muddatlar tugaguniga qadar ham sudlanganlikni bekor qilishi mumkin. Muallif barcha tayinlangan asosiy jazolar uchun sudlanganlikni olib tashlash qoidasining qo‘llanilishi, shaxs sodir etgan keyingi jinoyati uchun og‘irroq jazo tayinlanishining oldini oladi, degan fikrni ilgari surgan<sup>30</sup>.

Bundan tashqari, voyaga etmaganlarga nisbatan sodir qilinayotgan jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlarning oldini olish va ularga qarshi kurashish borasida olimlar tomonidan bildirilgan nazariy qarashlar, huquqni qo‘llash amaliyoti materiallari va xorijiy davlatlar qonunchiligi tahlilidan kelib chiqib, voyaga etmaganlarga nisbatan sodir etilgan jinsiy zo‘ravonlikning ijtimoiy ahamiyatini inobatga olib, jinoyat qonunchiligiga ushbu toifadagi jinoyatlarni sodir qilgan shaxs (pedofil) larga nisbatan kimyoviy kastratsiya jazosini kiritish taklif etildi.

Dissertant mazkur bobda ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish jazolarining voyaga etmaganlarga nisbatan eng kam muddati voyaga etganlarga nisbatan ko‘p ekanligini ko‘rsatib, ushbu jazolarning eng kam muddati 1 oy etib belgilanishi kerakligi odillik prinsipiga mos bo‘lishini asoslab bergan.

## XULOSA

“Jinoyat uchun jazo tayinlashning nazariy va amaliy jihatlari” mavzusidagi dissertatsiya bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi nazariy va ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan xulosalarga kelindi:

### **I. Ilmiy-nazariy xulosalar:**

1. Jazo tayinlash institutining tarixiy rivojlanish jarayonlari quyidagi davrlarga ajratilgan:

- a) qadimgi davr (Avesto, Xammurapi, Yaso qonunlari);
- b) shariat normalari amal qilgan davr. VIII-XIX asrning 50-yillari (Qur‘oni Karim, Hidoya, Temur tuzuklari);
- d) chor Rossiyasi mustamlakachiligi davri(XIX asrning 50-yillari va XX asrning 20-yillari);
- e) sobiq ittifoq davri(1922 – 1995-y);
- f) mustaqillik davri (1995-yildan hozirga qadar).

2. Jazo tayinlashga quyidagicha mualliflik ta‘rifi berildi:

jazo tayinlash – sud tomonidan aybdor deb topilgan shaxsga nisbatan qo‘llaniladigan muayyan jazoni mutanosiblik prinsipiga asoslangan holda, jinoyat qonunida nazarda tutilgan jazoning maqsadiga erishish uchun etarli holda tanlashni, jazoning miqdori va muddatlari bo‘yicha ko‘rsatma berish bilan bog‘liq masalalarni tartibga soluvchi jinoyat huquqi instituti.

3. Hukm qonuniy kuchga kiringach shaxs sodir qilgan jinoyati uchun tayinlangan jazo muddatini to‘liq o‘tamasdan turib, shuningdek jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinib, jazoning o‘talmagan qismi mobaynida, amnistiya akti yoki afv etish asosida jazodan muddatidan ilgari shartli

---

<sup>30</sup> <https://online.zakon.kz>

ravishda ozod qilish yoxud jazoni engilrog'i bilan almashtirish qo'llanilgan shaxs jazoning o'talmay qolgan qismi mobaynida faqat qasddan yangi jinoyat sodir etsa, shuningdek, shartli jazo tayinlangan shaxs sinov muddati davomida, jazosi engilroq jazo bilan almashtirilgan shaxs jazoning o'talmagan qismi mobaynida ayb shaklidan qat'iy nazar yangi jinoyat sodir qilganligi uchun sud tomonidan jazo chorasining qo'llanilishi bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlash, deb topiladi.

4. Tamom bo'lmagan jinoyat uchun jazo tayinlash jinoyat tarkibi belgilari mavjud bo'lgan, ijtimoiy xavfli harakatlarni to'liq bajarmaganlik yoki jinoiy oqibatlar ro'y bermagan (tayyorgarlik ko'rish yoki jinoyatga suiqasd qilish bosqichlarida) qilmish uchun sud tomonidan jazo chorasini qo'llanilishidir.

5. Jazo tayinlashning obykti sud tomonidan jinoyat sodir qilishda aybdor deb topilgan shaxsning huquqiy maqomi (holati) elementlari (jinoyat qonuni bilan jazo qo'llash imkoniyatini nazarda tutuvchi huquqlar, majburiyatlar va qonuniy manfaatlar) hisoblanadi.

6. Jazo tayinlash algoritmiga quyidagicha ta'rif berildi:

“Jazo tayinlash algoritmi – sudlar tomonidan jinoyat sodir qilgan shaxsga nisbatan uzil-kesil jazo tayinlash maqsadida jinoyat qonuniga muvofiq amalga oshirilishi lozim bo'lgan harakatlarning qat'iy ketma-ketligi”.

7. Sudlar jazo tayinlashda quyidagi jazo tayinlash algoritmiga rioya qilishi:

1) Jinoyat kodeksidagi qonuniylik, fuqarolarning qonun oldida tengligi, demokratizm, insonparvarlik, odillik, ayb uchun javobgarlik, javobgarlikning muqarrarligi, shuningdek mutanosiblik prinsiplariga muvofiq tayinlanishi rejalashtirilayotgan jazo chorasini ko'rib chiqishi;

2) jinoyat ishi bo'yicha JK 65, 66, 70, 71-moddalariga muvofiq javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilish masalasini muhokama qilishi;

3) jinoyatning ijtimoiy xavflilik xususiyati, ya'ni tajovuz ob'ekti(hayot va sog'liq, mulk, jamoat xavfsizligi va h.k.), aybning shakli, jinoiy qilmishning qonunda qaysi toifaga kiritilganligini o'rganishi;

4) jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi, ya'ni jinoiy niyatning amalga oshirilganligi darajasi, jinoyat sodir etish bosqichini, jinoyatning sodir etilish usuli, zarar miqdori yoki kelib chiqqan oqibatlarining og'irligi, sudlanuvchining jinoyat sodir etishdagi ishtiroki;

5) aybdorning shaxsini tavsiflovchi ob'ektiv(aybdorning yoshi, jinsi, homiladorlik holati) va ijtimoiy omillar (ilgari sudlanganligi, oiladagi, jamiyatdagi xulq-atvori, mashg'uloti, davlat yoki ijtimoiy mavqei va h.k. lar)ni tahlil qilish;

6) aybdorning axloqini jamiyatdan ajratmagan holda tuzatish mumkin bo'lgan holatlar mavjudligini o'rganishi;

7) aybdorga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar tayinlash uchun qonunda mavjud barcha imkoniyatlarni, shu jumladan modda yoki moddalar sanksiyalarida alternativ jazolar mavjudligini, hukmda ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq jazoni qo'llash zarurligi to'g'risidagi masalani tahlil qilishi;

8) jazoni engillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni o'rganish;

9) sodir etgan jinoyati uchun nazarda tutilganidan engilroq jazo tayinlash uchun asoslar mavjud yoki mavjud emasligini o'rganishi;

10) voyaga etmaganlarga nisbatan jazo tayinlashda JK 81–90-moddalarida

belgilangan xususiyatlar mavjud yoki mavjud emasligini ko'rib chiqishi va inobatga olishi;

11) jinoyat ishini apellyatsiya va kassatsiya tartibida ko'rishda jazo tayinlashning umumiy asoslariga rioya qilinganligi, tayinlangan jazo jinoyatning og'irligi va mahkumning shaxsiga mutanosibligini tekshirishi lozim.

8. Jinoiy jazo tayinlovchi sub'ekt-sudning xususiyatlari:

sud jinoyat sodir qilganlik uchun jazo tayinlaydigan yagona vakolatli organ hisoblanadi;

jazo tayinlovchi sub'ektning jazo tayinlash sohasidagi tegishli vakolatlari va majburiyatlari qonun hujjatlarida mustahkamlanadi;

jazo tayinlovchi organning to'laqonli faoliyat yuritishi uchun tashkiliy, ijtimoiy, moddiy va boshqa zarur choralarning davlat tomonidan ta'minlanishi kafolatlanadi.

9. Jinoyat kodeksiga quyidagi g'oyalarni o'z ichiga olgan yangi mutanosiblik prinsipining qo'llanilishi:

a) qonunlar insonlarga ortiqcha majburiyat yuklamay, aksincha ular hayotini barqarorlashtirish, bir maromda davom etishini ta'minlashi;

b) qonunchilikda bir insonning huquq va erkinliklarini himoya qilishda boshqa shaxsga bajarishi qiyin yoki ilojisiz bo'lgan majburiyatlar yuklanishining oldini olish maqsadga muvofiqdir.

10. Ayrim xorijiy davlatlar (Rossiya, Ozarbayjon va Qozog'iston Respublikalari) jinoyat qonunchiligi tahlili asosida O'zbekiston Respublikasi JKning 72-moddasidagi shartli hukm qilishni jazo tayinlashning bitta turi ekanligini hisobga olib, mazkur normani jazo tayinlashning umumiy asoslariga o'tkazish taklif etildi.

11. Voyaga etmaganlarning jinsiy daxlsizligiga tajovuz qilgan shaxslar (jinsiy erkinlikka qarshi qaratilgan jinoyatlarni sodir etgan pedofillar)ga nisbatan kimyoviy kastratsiya jazosini kiritish maqsadga muvofiq. (Qozog'iston, Ukraina, Germaniya, Norvegiya, Shvesiya, Daniya, Isroil, Janubiy Koreya, Fransiya, AQShda mazkur jazo mavjud. Xitoy, Lotin Amerikasi davlatlari, Saudiya Arabistoni va Eronda o'ldiriladi). Statistika ma'lumotlari O'zbekistonda pedofiliya bilan bog'liq jinoyatlar yildan yilga o'sayotganini ko'rsatadi. 2022-yilning o'zida 16 yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilishda aybli deb topilganlar soni 238 nafarni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilning dastlabki olti oyida shunday ishlar uchun 257 shaxsga jazo tayinlangan.

12. Jazo tayinlashda jazolarni individuallashtirishning quyidagi mezonlari:

a) har qanday jinoyat uchun jazo tayinlashda qo'llaniladigan umumiy mezonlar (jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini, qilmishning sababini, etkazilgan zararning xususiyati va miqdorini, aybdorning shaxsini hamda jazoni engillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar);

b) ayrim jinoyatlar uchun tayinlanadigan jazoning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi maxsus mezonlar (jinoyatda ishtirokchilik darajasi, tugallanganligi bilan bog'liq mezonlar);

d) sudlar tomonidan alohida jazo turlarini tayinlashda hisobga olinadigan qo'shimcha mezonlar (ozodlikni cheklash jazosining harbiy xizmatchilar, chet el fuqarolari, shuningdek O'zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslarga nisbatan tayinlanmasligi, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat

sodir etganlik, ehtiyotsizlik oqibatida jinoyat sodir etganlik va qasddan uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazoning homilador ayollarga va uch yoshga to'lmagan bolalari bor ayollarga nisbatan, shuningdek qonunchilikka muvofiq yoshga doir pensiyaga chiqish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga nisbatan tayinlanmasligi) asoslangan;

13. Jazo tayinlashga ta'sir ko'rsatadigan jinoyat qonunchiligidagi sudlarga o'z ixtiyoriga ko'ra jazo qo'llash imkoniyatini beradigan ayrim normalar qat'iy belgilanishi lozim. Jumladan, JK 34-moddasi 4-qismidagi "sudning hukmi bilan shaxs o'ta xavfli residivist deb topilishi mumkin", 5-qismidagi "shaxsni o'ta xavfli residivist deb topish to'g'risidagi masala hal qilinayotgan vaqtda uning boshqa davlatlar sudlarining hukmlari bo'yicha sudlanganligi ham hisobga olinishi mumkin" degan jummalarni "qo'llaydi", "deb topadi", "hisobga oladi" jummalariga o'zgartirish maqsadga muvofiq.

14. Sud JK 57-moddasini qo'llashni lozim deb topmasa, uni hukmda asoslantirishi lozim.

15. Nazariy qoida sifatida ayrim holatlar bo'yicha:

- a) barcha holatlarni inobatga olgan holda, ketma-ketlik asosida yoki
- b) imtiyozlarning eng engilini qo'llash orqali jazo tayinlash usuli ishlab chiqildi.

## **II. Jinoyat qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha takliflar:**

1. JK 32-moddasidagi takroran jinoyat sodir etish qoidasini JK Umumiy va Maxsus qism moddalaridan chiqarish lozimligi asoslantirildi.

2. JKning 33-moddasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

### **33-modda. Jinoyatlar majmui**

Ushbu Kodeks Maxsus qismida nazarda tutilgan, javobgarlikka tortiladigan ikki yoki bir necha jinoiy qilmishni sodir etish, agarda ulardan birortasi uchun ham shaxsga nisbatan chiqarilgan hukm qonuniy kuchga kirmagan bo'lsa, jinoyatlar majmui deb topiladi.

**Umumiy qasd bilan qamrab olingan va yagona maqsadga yo'naltirilgan bir jinoyat tarkibini tashkil qiluvchi bir-biriga o'xshash bir nechta jinoiy qilmishlardan iborat bo'lgan (davomli) jinoyat jinoyatlar majmui deb topilmaydi.**

**Vazifalarini uzoq vaqt mobaynida bajarmaslikdan iborat bo'lgan, bir jinoyatning uzluksiz tarkibini tashkil qilgan (uzoqqa cho'zilgan) jinoyat jinoyatlar majmui deb topilmaydi.**

**Ushbu Kodeks Maxsus qismining ikki yoki undan ortiq moddalarida nazarda tutilgan bir necha jinoyat tarkibi mavjud bo'lgan bitta qilmishni sodir etish, agar ushbu normalarning biri bilan to'liq qamrab olinmagan bo'lsa, jinoyatlar majmui deb topiladi.**

Agar shaxs sodir etgan bitta qilmishda ushbu Kodeks Maxsus qismi ayni bir moddasining turli qismlarida nazarda tutilgan jinoyatlarning alomatlarini mavjud bo'lsa, u moddaning og'irroq jazo belgilangan qismi bo'yicha **jazo tayinlanadi.**

3. JKning 34-moddasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

### **34-modda. Residiv jinoyat**

**2-qism. Chiqarilmoqda.** JK 56-moddasidan va JK Maxsus qism

moddalaridan “residivist”, “xavfli residivist” va “o‘ta xavfli residivist” jumllarini chiqarish lozimligi asoslantirildi.

**4-qism. Shaxs faqat sud hukmi bilan o‘ta xavfli residivist deb topiladi.**

**8-qism. O‘ta xavfli residivist tomonidan JK Maxsus qismi moddasida nazarda tutilgan jinoyat sodir etilsa, unga nisbatan ushbu moddaning eng og‘ir qismida ko‘rsatilgan jazo belgilanishi lozim.**

4. JKning 46-moddasi uchinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**46-modda. Axloq tuzatish ishlari**

**3-qism. Axloq tuzatish ishlari pensiya yoshiga etganlarga, 16 yoshga to‘lmagan shaxslarga, mehnatga qobiliyatsizlarga, homilador ayollarga, uch yoshga to‘lmagan bolalari bor ayollarga va harbiy xizmatchilarga nisbatan qo‘llanilmaydi.**

5. Jinoyat kodeksining 55-moddasiga quyidagi qo‘shimcha bandlarni kiritish taklif etildi:

**55-modda. Jazoni engillashtiruvchi holatlar**

Quyidagi holatlar jazoni engillashtiruvchi holatlar deb topiladi:

**jabrlanuvchi (fuqaroviy da‘vogar) ning da‘vosi yo‘qligi;**

**jinoyat sodir etilganidan so‘ng jabrlanuvchiga tibbiy yoki boshqa tarzda yordam ko‘rsatish;**

**aybdorning qaramog‘ida voyaga etmagan farzandi mavjudligi.**

6. JK 57-moddasini 4-qism bilan to‘ldirish taklif etildi:

**4-qism. Mazkur norma qoidasi voyaga etmaganlarning jinsiy daxlsizligiga qarshi jinoyatni sodir etgan shaxslarga nisbatan tatbiq etilmaydi(bunday jinoyat voyaga etmagan shaxs tomonidan o‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga etmaganga nisbatan sodir etilganligi bundan mustasno).**

7. JK 57<sup>1</sup>-moddasi JKdan chiqarilishi asoslantirildi.

8. JK 57<sup>2</sup>-moddasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**57<sup>2</sup>-modda. Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzilgan jinoyatlar bo‘yicha jazo tayinlash.**

**2-qism. Sud jazo tayinlashda ushbu Kodeks 57-moddasini qo‘llash masalasini ham muhokama qilishi lozim.**

9. JK 58-moddasining uchinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**“58-modda. Tamom bo‘lmagan jinoyatlar uchun jazo tayinlash**

**5-qism. Tamom bo‘lmagan jinoyatlar uchun uzoq muddatli va umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi mumkin emas”.**

10. JK 58<sup>1</sup>-moddasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**“58<sup>1</sup>-modda. Ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo tayinlash**

**Ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyat uchun jazo tayinlashda sud har bir aybdorning jinoyatda ishtirok etganlik xususiyati va darajasini hisobga oladi. Har qaysi ishtirokchining shaxsiga tegishli bo‘lgan engillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlar sud tomonidan faqat shu ishtirokchining o‘ziga jazo tayinlashda hisobga olinadi.**

**Ikki yoki undan ortiq shaxsning oldindan til biriktirib, jinoyat sodir etilishida ishtirok qilishi murakkab ishtirokchilik deb topilib, JK Maxsus qismi**

tegishli moddasining“ bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til birlashtirilgan holda” degan bandi bilan jazo tayinlanishi lozim. Shuningdek, ikki yoki undan ortiq shaxsning birgalikda jinoiy faoliyat olib borish uchun ikki va undan ortiq marotaba jinoyat sodir etganligi uyushgan guruh tomonidan sodir etilgan deb topilib, JK Maxsus qismining og‘irlashtiruvchi “uyushgan guruh a‘zosi tomonidan” degan bandida nazarda tutilgan norma bilan jazo tayinlanadi.

11. JK 59-moddasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**59-modda. Bir necha jinoyat sodir etganlik uchun jazo tayinlash**

**1-qism.** Ikki yoki undan ortiq jinoyatni sodir etgan shaxs, ulardan birortasi uchun ham hukm qonuniy kuchga kirib, sudlangan bo‘lmasa, sud ushbu Kodeksning 54-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq har qaysi qilmish uchun jazo tayinlab, so‘ngra ularni to‘la yoki qisman qo‘shish yo‘li bilan uzil-kesil jazo tayinlaydi. Bunda jinoyatlar majmuini faqat ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlar va uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar tashkil etsa, uzil-kesil tayinlangan jazo ushbu Kodeksning Umumiy qismida nazarda tutilgan jazo turining maksimal miqdor va muddatining yarmidan, agar jinoyatlar majmuini tashkil etuvchi jinoyatlardan bittasi og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat bo‘lsa, uzil-kesil tayinlangan jazo ushbu Kodeksning umumiy qismida nazarda tutilgan jazo turining maksimal miqdor va muddatidan oshmasligi kerak.

**8-qism:** Agar ish bo‘yicha hukm chiqarilganidan keyin mahkumning ana shu ish bo‘yicha chiqarilgan hukmga qadar sodir etilgan yana boshqa jinoyatda aybli ekanligi aniqlansa ham jazo o‘sha tartibda tayinlanadi. Bunday holda jinoyatlar majmui bo‘yicha sud tomonidan tayinlangan jazo muddatiga birinchi hukm yuzasidan belgilangan jazo to‘la yoki qisman qo‘shilib, uzil-kesil tayinlangan jazo muddati birinchi hukm yuzasidan tayinlangan jazoni o‘tash belgilangan kundan hisoblanadi.

**9-qism.** Shaxs sodir qilgan jinoyati uchun JK 72-moddasi qo‘llanilib jazo shartli tayinlangan bo‘lsa, sud hukmi chiqqunga qadar boshqa jinoyati aniqlangan taqdirda ushbu jinoyati sanksiyasida faqat ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi ko‘zda tutilganligini inobatga olib, sudlanuvchiga ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlasa va shartli hukm qilish yuzasidan sinov muddatini tugash vaqtiga yaqin qolgan bo‘lsa, shartli hukm bekor bo‘lib, yangi jazoni ijro etish muddati birinchi sinov muddati boshlangan vaqtdan hisoblanadi.

**10-qism.** Bir necha jinoyat yuzasidan jazoning maksimal muddati yigirma yildan oshmasligi kerak(uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan hollar bundan mustasno).

12. JK 60-moddasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**60-modda. Bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlash**

**1-qism.** Agar mahkum hukm chiqarilib qonuniy kuchga kirgandan keyin jazoni to‘la o‘tamay turib, yangi jinoyat sodir etsa, sud yangi hukm bo‘yicha tayinlangan jazo muddatiga ilgarigi hukm yuzasidan o‘talmay qolgan jazo muddatini to‘la yoki qisman qo‘shadi.

**5-qism.** Bir necha hukmlar yuzasidan axloq tuzatish ishlariga yoki xizmat bo‘yicha cheklashga hukm qilinib, ish haqi yoki pul ta‘minotidan ushlab qolishning har xil miqdori belgilangan hollarda bu jazolarning faqat muddatlari qo‘shiladi.

Shunga ko'ra, bunday hollarda uzil-kesil axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlanganida, ish haqi yoki pul ta'minotidan ushlab qolishning eng ko'p bo'lgan miqdori belgilanishi lozim. Bir necha jinoyat sodir etganlik uchun JK 59-moddasi tartibida jazo tayinlashda ham shu qoidalarga amal qilinishi lozim.

7-qism. Bir necha hukmlar yuzasidan uzil-kesil tayinlanadigan jazo miqdori oldingi hukm bo'yicha jazoning o'talmagan qismidan kam bo'lishi mumkin emas.

13. JK 61-moddasi birinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**61-modda. Jazolarni qo'shishning hisoblash qoidalari**

**Bir necha jinoyat va bir necha hukm yuzasidan jazolar qo'shilganda:**

a) ozodlikdan mahrum qilishning bir kuni jarimaning  $\frac{1}{2}$  qismi(bxm), ozodlikni cheklashning ikki kuniga, intizomiy qismga jo'natishning bir kuniga, axloq tuzatish ishlarining yoki xizmat bo'yicha cheklashning uch kuniga; majburiy jamoat ishlarining ikki soatiga;

b) ozodlikni cheklashning bir kuni jarimaning  $\frac{1}{3}$  qismi(bxm), axloq tuzatish ishlarining yoki xizmat bo'yicha cheklashning uch kuniga; majburiy jamoat ishlarining ikki soatiga;

v) axloq tuzatish ishlarining bir kuni jarimaning  $\frac{1}{4}$  qismi(bxm), majburiy jamoat ishlarining bir yarim soatiga;

g) majburiy jamoat ishlarining ikki soati jarimaning  $\frac{1}{5}$  qismi (bxm) ga to'g'ri keladi.

Muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi jazo ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo'natish, ozodlikni cheklash, xizmat bo'yicha cheklash, axloq tuzatish ishlari, majburiy jamoat ishlari, **jarima** jazosi bilan qo'shilganida har qaysisi alohida ijro etiladi.

14. JK 62-moddasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**62-modda. Ushlab turish, qamoqqa olish yoki uy qamog'i vaqtini hisobga olish qoidalari**

**1-qism.** Sud jazo tayinlash chog'ida ushlab turishning, qamoqqa olishning yoki uy qamog'ining har bir kunini:

a) ozodlikni cheklashning **ikki kuniga;**

b) intizomiy qismga jo'natishning, ozodlikdan mahrum qilishning bir kuniga;

v) axloq tuzatish ishlarining yoki xizmat bo'yicha cheklashning uch kuniga;

g) majburiy jamoat ishlarining to'rt soatiga tenglashtirib hisoblaydi.

15. JK 74-moddasi 4-qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**74-modda. Jazoni engilrog'i bilan almashtirish**

**4-qism.** Ozodlikdan mahrum qilish yoki ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoning o'talmagan qismi axloq tuzatish ishlari bilan almashtirilganda axloq tuzatish ishlari ozodlikdan mahrum qilish yoki ozodlikni cheklash jazosining o'talmagan qismi muddatiga tayinlanadi. **Almashtirilgan jazo muddati JK 46-moddasida belgilangan muddatdan ortiq bo'lishi mumkin. Mazkur qoida JK 59-moddasi 8-qismi yoki JK 60-moddasi asosida jazo tayinlanganda ham amal qiladi.**

16. JK 79-moddasi quyidagi tahrirda bayon etish taklif etilsin:

**79-modda. Sudlanganlikning olib tashlanishi**

Shaxs **tayinlangan** jazoni o‘tab bo‘lganidan keyin unga nisbatan ma‘muriy jazo yoki intizomiy ta’sir choralari qo‘llanilmagan bo‘lsa, jamoat birlashmasi, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organi, jamoa yoki jazoni o‘tab chiqqan shaxsning o‘zi bergan iltimosnomasiga ko‘ra sud ushbu Kodeksning 78-moddasida nazarda tutilgan muddatlarning kamida yarmi o‘tganidan keyin uning sudlanganligini olib tashlashi mumkin.

17. JK 83-moddasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**83-modda. Axloq tuzatish ishlari**

**1-qism.** Axloq tuzatish ishlari faqat mehnatga layoqatli **16 yoshdan oshganlarga** nisbatan o‘z ish joyida o‘tash, aybdor hech qaerda ishlamasa, ushbu jazo ijrosini nazorat qiluvchi organlar belgilab beradigan o‘zi yashaydigan hududdagi boshqa joylarda o‘tash tariqasida bir oydan bir yilgacha muddatga tayinlanadi.

18. JK 84<sup>1</sup>-moddasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**84<sup>1</sup>-modda. Ozodlikni cheklash**

Ozodlikni cheklash voyaga etmagan mahkumlarga nisbatan asosiy jazo chorasi sifatida **bir** oydan ikki yilgacha muddatga tayinlanadi.

19. JK 85-moddasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**85-modda. Ozodlikdan mahrum qilish**

**1-qism.** Voyaga etmaganlarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosi **bir** oydan o‘n yilgacha muddatga tayinlanadi, ushbu Kodeks 86-moddasining ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi qismlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

### **III. Sud-tergov organlari amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan takliflar:**

**1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-maydagi 346-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Majburiy jamoat ishlari tariqasidagi jazoning ijrosini tashkil etish tartibi haqida”gi Nizomning 15-bandi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**15-bandi** ikkinchi jumlasini. Voyaga etmagan tomonidan o‘taladigan majburiy jamoat ishlari vaqti dam olish kunlari va mahkum o‘qishda yoxud asosiy ishda band bo‘lmagan kunlari **ikki** soatdan, ish kunlari, o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkaziladigan kunlari esa – ikki soatdan, biroq haftasiga uch kundan oshmasligi lozim.

**2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2007 yil 14 noyabrdagi 15-sonli “Umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarori 2-bandi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

Sudlarga tushuntirilsinki, JK 50-moddasi uchinchi qismida nazarda tutilgan yigirma yildan ortiq, biroq yigirma besh yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga tayinlanadigan uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazosi ozodlikdan mahrum qilish jazosining bir ko‘rinishi bo‘lib, u faqat javobgarlikni og‘irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o‘ldirish va odam o‘lishiga yoki boshqa og‘ir oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo‘lgan terrorizm sodir etgan shaxslarga nisbatan tayinlanishi mumkin. Uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazosi sud tomonidan ushbu jinoyatlarga nisbatan qonunda umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlanishi istisno etilgan (masalan, *tugallanmagan jinoyat* uchun (ushbu jumla chiqarilmoqda), shuningdek ish holatlariga ko‘ra sud aybdorga nisbatan

uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazosi yoki o‘n besh yildan yigirma yil muddatgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi maqsadga muvofiq emasligi haqidagi xulosaga kelgan hollarda tayinlanishi mumkin.

**3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi 1-sonli “Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining Yangi tahrirdagi loyihasi ishlab chiqildi.**

**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING OF THE SCIENTIFIC  
DEGREES DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03. AT TASHKENT STATE  
UNIVERSITY OF LAW**

---

**TASHKENT STATE UNIVERSITY OF LAW**

**ROZIMOVA KUNDUZ YULDASHEVNA**

**THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECTS OF  
PUNISHMENTS FOR CRIME**

12.00.08 – Criminal Law. Criminology. Criminal-executive law

**ABSTRACT**  
**of doctoral (DSc) dissertation on legal sciences**

**Tashkent city - 2024**

**The theme of doctoral dissertation (DSc) was registered at the Supreme Attestation Commission at the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan under B2021.4.DSc/Yu185.**

The dissertation is prepared at Tashkent State University of Law.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, Russian, and English (summary)) on the website of the Scientific Council ([www.tsul.uz](http://www.tsul.uz)) and the Information educational portal “ZiyoNET” ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)).

<b>Scientific adviser:</b>	<b>Abdurasulova Kumriniso Raimkulovna</b> Doctor of Science in Law, Professor
<b>Official opponents:</b>	<b>Suyunova Dilbar Joldasbaevna</b> Doctor of Science in Law, Professor
	<b>Toshpulatov Akrom Ikromovich</b> Doctor of Science in Law, Associate Professor
	<b>Najimov Miratdiyev Shamshetdinovich</b> Doctor of Science in Law, Associate Professor
<b>The leading organization:</b>	<b>University of Public Safety of the Republic of Uzbekistan</b>

The defense of the dissertation will be held on February 09, 2024 at 14<sup>00</sup> at the Session of the Scientific Council DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 at the Tashkent State University of Law (Address: 100047, Amir Temur street, 35. Tashkent city. Phone: +99871 233-66-36; Fax: +99871 233-37-48; e-mail: [info@tsul.uz](mailto:info@tsul.uz)).

The doctoral dissertation is available at the Information Resource Center of Tashkent State University of Law (registered under No 1234), (Address 100047, Amir Temur street, 35. Tashkent city. Phone: +99871 233-66-36).

The abstract of the dissertation was distributed on January 26, 2024.

(Registry protocol No.16 on January 26, 2024).

**A.A.Otajonov**  
Chairman of the Scientific Council for awarding scientific degrees, Doctor of Science in Law, Professor

**M.K.Urazaliyev**  
Secretary of the Scientific Council for awarding scientific degrees, Doctor of Science in Law, Professor

**N.S.Salayev**  
Chairman of the Scientific Seminar under the Scientific Council for awarding scientific degrees, Doctor of Science in Law, Professor

## INTRODUCTION (abstract of doctoral dissertation (DSc))

**The actuality and relevance of the dissertation theme.** In the world, prevention of crimes, sentencing persons who have committed crimes, correction of morality of convicts, prevention of their continuation of criminal activity, and the achievement of the goals of punishment acquire actual importance. "Goals-means-outcome" is the main rule in sentencing for a crime. One of the priority tasks of the judiciary is the imposition of punishment, and there is a need for an in-depth study of its effectiveness. Because in 2020, 57 out of every 100 thousand people in the world were sentenced to criminal punishment, and in 2023, this figure increased by 13% compared to 2020<sup>31</sup>.

Sentencing rates remain high in all countries. In 2023, sentences for offenders will be 82 per 100,000 people in Venezuela, 75 in South Africa, 81 in the UK, 14<sup>32</sup> in the UAE, and 39 in Russia, and the rate of crime punishments in Uzbekistan in the last three years has increased by 31<sup>33</sup>. According to the UN, one of the main causes of recidivism by people who have previously committed a crime is directly related to sentencing deficiencies. The above data indicate the relevance of the study of sentencing issues.

Special attention is paid to the research of issues in state policy on the correct application of sentencing laws, the improvement of criminal legislation, as well as the issue of fair punishment for committed crimes worldwide. In particular, the rules of individualization of punishment, the improvement of legal norms on the addition of punishments and the positive experience of foreign countries to the national legislation, strengthening the implementation of international standards, increasing the effectiveness of measures to prevent re-offending, and researching directions for improving the practice of law enforcement are of great importance.

The criminal cases that are tried in the first instance in our republic and analyzing the number of convicted persons shows that it is growing every year. In particular, in 2021 alone, Articles 57-60 of the Criminal Code were applied by courts of first instance; 21,295 criminal cases against 27,880 people were tried and sentenced, and by 2022, this figure had increased significantly. In 2022, Articles 57-60 Criminal Code were applied by courts of first instance; 26,730 criminal cases (+5,435 or 26 foiz compared to 2021) were tried against 34,497 (+6,617 or 24 foiz compared to 2021), and punishment was imposed. In addition, the number of trial court sentences modified or reversed in the appellate court also increases year-to-year between 2021 and 2022. For example, in 2021, the sentences of the courts of first instance in 854 criminal cases against 1,153 persons using Articles 57-60 of the Criminal Code, by 2022 - 1,078 against 1,438 persons (+285 or 25 foiz compared to 2021.) (+224 or 26 foiz compared to 2021) criminal cases were changed on appeal. It is worth noting that the number of criminal cases overturned in the appellate court also tends to increase. In particular, in 2021, against 221 persons in 174 criminal cases, Articles 57-60 of the courts of first instance were applied, and the sentences

---

<sup>31</sup> [https://www.numbeo.com/crime/region\\_rankings](https://www.numbeo.com/crime/region_rankings)

<sup>32</sup> <https://www.numbeo.com/crime/rankings>

<sup>33</sup> <https://www.numbeo.com/crime/country>

imposed by the courts were overturned in the court of appeal; by 2022, 227 criminal cases against 296 persons were overturned in the court of appeal. In turn, in recent years, the number of cases tried by the courts of first instance and reversed on appeal has been increasing. For example, in 2021, 854 of the 21,295 criminal cases tried in first instance courts with the application of Articles 57-60 of the Criminal Code and the punishment imposed, the sentences were changed in the appeal instance, and by 2022, 1,078 of the 26,730 criminal cases that were sentenced in the first instance court were changed in the first appeal instance<sup>34</sup>. The increase in the number of criminal cases and the number of persons being sentenced in first instance courts; the number of first instance court sentences changed or annulled on appeal; and also calls for a review of the provisions relating to sentencing in criminal law and their improvement.

In our country, particular importance is attached to the improvement of criminal legislation and the fundamental reform of the system of imposing just punishment on persons who have committed crimes, and some work is being carried out in this area. It is also significant that the new version of the Constitution, adopted by referendum on April 30, 2023, includes provisions on punishment. In particular, Article 26 of the Constitution states that no one may be subjected to torture, violence, or other cruel, inhuman, or degrading treatment or punishment; Article 30 of the Constitution states that no one may be convicted, punished, or deprived of property; that no one may be deprived of any rights; and that no one may be convicted of the same crime twice<sup>35</sup>. To provide a clear definition of the content of terms and concepts used in the Criminal Code, revise the system of criminal penalties and sentencing mechanisms, and improve the Criminal Code norms on uncompleted crimes, participation in crimes, and some institutions of committing crimes. To eliminate conflicts in them and to reduce the conditions of punishment and expansion was defined as the main task<sup>36</sup>.

The President of the Republic of Uzbekistan “On measures to further improve the system of crime prevention and combating” (2017), “On the strategy of action for the further development of the Republic of Uzbekistan” (2017), “Measures to fundamentally improve the system of crime and criminal procedural legislation, the implementation of decrees” (2018), “On the Strategy of Uzbekistan – 2030” (2023), “On the implementation of the new Constitution of the Republic of Uzbekistan” and other legal documents related to the subject, this dissertation research serves to a certain extent.

### **Correspondence of the research to the main priorities of the development science and technology of the republic.**

The dissertation is carried out within the framework of the priority direction of development of science and technology of the Republic I: “Formation of the system of innovative ideas in social, legal, economic, cultural, spiritual, and educational development of information society and democratic state and ways of their realization”.

### **Review of foreign scientific research on the theme of the dissertation.**

---

<sup>34</sup> <https://lex.uz/docs/3735818>

<sup>35</sup> <https://lex.uz/docs/3735818>

<sup>36</sup> <https://lex.uz/docs/3735818>

Scientific research to improve criminal legislation on sentencing is carried out in international scientific and educational institutions, such as the Russian State University of Justice (Russia), Case Western Reserve University Law School (USA), Moscow State University named after Lomonosov (Russia), Ural State Law University (Russia), and Oxford Law University (UK).

Certain scientific results have been achieved in the study of the theoretical and practical aspects of sentencing. In particular, as a result of scientific research, conclusions on the topics: the principles of sentencing have been established (Kazan State University), the rules of fining (Omsk State University named after Dostoevsky), sentencing: mitigating and aggravating circumstances (Moscow State Law University named after O.E. Kutafin), the rules of individualization in sentencing (Kazan State University), sentencing (University of Pennsylvania), criminal justice: the policy and problems of sentencing (Oxford Law University) were formed and justified.

In the world, research is conducted on the following priority areas of sentencing: imposing punishment for crimes committed with participation; the institution of recidivism; taking into account mitigating and aggravating circumstances when imposing punishment; imposing a more lenient punishment for committing a crime than provided for by law; general theoretical foundations and practical problems of criminal sentencing; sentencing for several crimes and several convictions, etc.

**The degree to which the problem has been studied.**

